

Mikrokreditning asosiy shartlari to'g'risidagi axborot varaqasi

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari		“TBC Bank” ATB Manzil: 100015, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, “Buyuk Turon” mahallasi, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 1-uy STIR: 207318613 Sayt: https://tbcbank.uz/ Telefon: 1150, +99878 777 27 27 Markaziy bank litsenziyasi: 17.03.2022-yildagi 86-sonli
1	Maqsad	O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun mikrokredit
2	Qarz oluvchiga qo‘yilgan minimal talablar	- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lish - Doimiy rasmiy daromad manbayiga ega bo‘lish - Ijobiy kredit tarixi (mavjud bo‘lgan taqdirda) - Boshqa qarzlar bo‘yicha qarzдорlikning yo‘qligi - MIBda qarzдорlikning yo‘qligi
3	Kredit turi	Mikrokredit
4	Mikrokredit summasi	300,000 so‘mdan 100,000,000 so‘mgacha
5	Mikrokredit muddati	3 oydan 36 oygacha
6	Valyuta	O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (so‘m)
7	Foiz stavkasi	Yillik 28% dan 49% gacha. Foiz stavkasi anketada ko‘rsatilgan ma’lumotlar, shuningdek, mijozning moliyaviy ahvoli va joriy majburiyatlari kabi bir qator boshqa omillar asosida hisoblab chiqiladi. Oshirilgan foiz — muddati o‘tkazib yuborilgan asosiy qarz summasidan kuniga 0,5%.
8	Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash jarayoni boshlangan sana yoki uni aniqlash tartibi	Kredit rasmiylashtirilgan sanadan boshlab foizlar asosiy qarz qoldig‘iga hisoblanadi. Shartnoma bo‘yicha foizlar asosiy qarz qoldig‘iga har kuni hisoblanadi. Oshirilgan foizlar muddati o‘tgan asosiy qarz qoldig‘iga har kuni hisoblanadi
9	Kredit olish va unga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq vositachilik komissiyalari, tariflar va boshqa to‘lovlarning batafsil ro‘yxati va miqdorlari	Kredit bilan bog‘liq har qanday qo‘shimcha xarajatlar mavjud emas
10	Kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun iste’molchining javobgarligi va tavakkalchiligi	Bir martalik to‘lov kechikishi uchun quyidagi miqdorda jarima: • muntazam oylik to‘lov 500 000 so‘mgacha (bundan tashqari) bo‘lganda — 50 000 so‘m;

		• muntazam oylik to'lov 1 000 000 so'mgacha (bundan tashqari) bo'lganda — 75 000 so'm; • muntazam oylik to'lov 1 000 000 so'm va undan yuqori bo'lganda — 100 000 so'm. Bank kredit shartnomasiga muvofiq qarz oluvchidan onlayn-mikrokreditni (hisoblangan foizlar bilan birga) muddatidan oldin qaytarishni talab qilish huquqiga ega
11	Kredit berish, shu jumladan masofaviy xizmatlar ko'rsatish tizimlari orqali kredit berish usullari	Taqdim etish shakli: naqd pulsiz o'tkazma ko'rinishida. Taqdim etish usuli: Bankda ochilgan talab qilib olinguncha hisob raqamiga, Bank tomonidan chiqarilgan bank kartasiga pul o'tkazish yo'li bilan.
12	Qarz oluvchining kreditni to'lashda, kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lashda va boshqa to'lovlarni to'lash davriyligi	Har oy, shartnoma jadvaliga muvofiq
13	Garovga qo'yuvchi, kafil va kredit shartnomasining tomonlari bo'lgan boshqa shaxslarning javobgarligi	Garovga qo'yuvchi, kafil va kredit shartnomasining tomonlari bo'lgan boshqa shaxslar (Tijorat banki va Qarz oluvchidan tashqari) mavjud emas.
14	Bank va iste'molchining huquq va majburiyatlari, shu jumladan muddati o'tgan qarzдорlikni undirish jarayonida iste'molchining huquqlari, shuningdek, bank xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan tomonlarning javobgarligi to'g'risidagi ma'lumotlar	Tomonlarning shartlari, xizmatlari, huquq va majburiyatlariga oid barcha ma'lumotlar "TBC Bank" ATBning mahsulot va xizmatlarni taqdim etish bo'yicha Bosh Shartlarida, shuningdek, Onlayn mikrokredit shartnomasida ko'rsatilgan.
15	Iste'molchi tomonidan kredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish hamda kredit berish va undan foydalanish muddatlari	Bir operatsion kunidan ko'p bo'lmagan muddat ichida
16	Kredit olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning to'liq ro'yxati	Kredit olish uchun ariza berishda hujjatlarni taqdim etishning zaruriyati yo'q. Barcha jarayonlar masofadan turib amalga oshiriladi
17	Kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash turlari	Mavjud emas
18	Kreditni muddatidan oldin so'ndirish tartibi	Kredit shartnomasining 4.7-bandi asosida. Qarz oluvchi tomonidan onlayn-mikrokredit muddatidan oldin qaytarilganda, bank tomonidan to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: • to'lov kunidagi hisoblangan foizlar qoldig'i; • asosiy qarz summasining qoldig'i. Bunda dastlabki to'lovlar jadvali qayta hisoblanadi: asosiy qarzning muddatidan oldin to'langan qismi jadval bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi. Bunda asosiy qarz qoldig'i kredit shartnomasi muddati tugaguncha annuitet usulida hisoblashga kiritiladigan sanagacha hisoblangan foizlarga to'lanadi.
19	Kredit shartlarini o'zgartirish tartibi, shu jumladan so'ndirish shartlarini qayta ko'rib chiqish va garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratilgan undirish tartib-taomili	Tomonlarning kelishuviga ko'ra, shartlarning o'zgarishi haqida ular kuchga kirishidan 10 kun oldin xabardor qilish orqali.

20	Garov	Mavjud emas
21	Kreditning to'liq summasi (nominal foiz stavkasi va kreditga xizmat ko'rsatish qiymatini o'z ichiga oladi)	Kreditning to'liq summasi (KTS) avtomat skoring tizimi qarori asosida belgilanadigan foiz stavkasidan kelib chiqib aniqlanadi
22	Berilganligi uchun to'lov	Mavjud emas
23	Bir vaqtning o'zida bir nechta kredit rasmiylashtirish imkoniyati	Mavjud
24	Muddatidan oldin qaytarish imkoniyati	Mavjud
25	Jadval	Annuitet (teng oylik to'lovlar)
26	To'lov sanasi	Har bir mijoz uchun skoring tizimi baholash natijasiga qarab avtomat tarzda belgilanadi. Mijoz taklif etilgan to'lov sanalaridan birini tanlashi mumkin.
27	Muddatidan oldin qaytarilganda jadvalni qayta hisoblash usuli	To'lov miqdori to'langan asosiy qarz hisobiga kamayadi, kredit muddati esa o'zgarishsiz qoladi.

Kredit olishga rozilik bildirishdan oldin diqqat bilan o'qib chiqing

Siz bankdan kreditning shartlari va qiymati, to'lovlar hamda hisob-kitoblar tartibi (foizlar, jarimalar va penyalari), kredit karta shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlaringiz, kredit shartnomasi yuzasidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar va mas'uliyat, shuningdek, Siz uchun tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar shikoyatlaringiz bo'lsa, murojaatni (telefon raqami ko'rsatiladi) telefon raqamiga, (bankning pochta manzili ko'rsatiladi) manziliga yoki (bankning elektron pochta manzili ko'rsatiladi) elektron pochta manzili yuborishingiz mumkin.

AXBOROT VARAQASINING ISHONCHLILIGI VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI	
<i>Elektron shaklda to'ldirilgan</i>	<i>Elektron shaklda to'ldirilgan</i>
(Bank mutaxassisining F.I.Sh. va lavozimi)	(to'ldirilgan sana)